



# QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

(dastlabki ma'lumotlar)


Yanvar-iyun 2018 yil

## RAQAMLAR

- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **35,2 trln. so'm**, o'sish sur'ati **2,7 %**
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati **102,7 %** ni tashkil qildi.
- shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari – **101,1 %**
- chorvachilik mahsulotlari – **105,4 %**


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 35 210,8 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 102,7 %ni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 35 012,3 mlrd.so'mni (102,7 %), o'rmon xo'jaligida – 58,7 mlrd.so'mni (100,7 %), baliq xo'jaligida – 139,8 mlrd.so'mni (130,2 %) tashkil qildi

## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Surxondaryo (106,5 %), Andijon (105,8 %), Namangan (105,5 %) va Jizzax (104,9 %) viloyatlarida kuzatildi. Sirdaryo (100,2 %), Samarqand va Farg'ona (100,5 %) viloyatlarida esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

### **Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi**



Respublikaning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Andijon viloyatining ulushi 12,0 %ni tashkil etdi va hududlar boyicha etakchilik qilmoqda, Toshkent va Surxondaryo viloyatlari mos ravishda 11,5 % va 10,8 % ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Qoraqalpog'iston Respublikasi (2,1 %), Sirdaryo (3,6 %) va Jizzax (4,3 %) viloyatlarida qayd etildi.

### **Qishloq xo'jaligi mahsulotlari**


2018 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2017 yilning mos davriga nisbatan 102,7 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 101,1 %ni, chorvachilik mahsulotlari – 105,4 %ni tashkil qildi.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 80,4 %i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 17,6 %i – fermer xo'jaliklariga, 2,0 %i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

## Dehqonchilik

2018 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 21 242,8 mlrd. so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 101,1 %ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 61,5 %ni tashkil qildi.




### 2018 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming tonna	o'sish sur'ati %da	ming tonna	o'sish sur'ati %da	ming tonna	o'sish sur'ati %da	ming tonna	o'sish sur'ati %da
Don ekinlari	4 642,4	85,9	3 823,7	86,4	737,5	79,5	81,2	148,2
Kartoshka	1 485,9	105,3	89,1	73,9	1 392,3	108,2	4,5	121,7
Sabzavotlar	3 140,1	104,7	350,8	83,9	2 742,1	107,7	47,2	131,3
Poliz	215,4	112,6	60,4	88,7	152,1	126,3	2,9	106,6
Meva va rezavorlar	934,6	100,5	250,0	88,4	673,2	105,4	11,4	131,7
Uzum	41,6	149,2	14,6	2,2 m.	26,5	125,4	0,5	2,3 m.

**Hosilni yig'ib olish.** 2018 yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda 4 642,4 ming tonna (85,9 %) don ekinlari ishlab chiqarildi, 1 485,9 ming tonna (105,3 %) kartoshka kavlab olindi, 3 140,1 ming tonna (104,7 %) sabzavotlar, 215,4 ming tonna (112,6 %) oziqbop poliz, 934,6 ming tonna (100,5 %) meva va rezavorlar, 41,6 ming tonna (149,2 %) uzum yig'ib olindi.

### Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi



Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida kartoshka umumiy hajmining 93,7 %i, sabzavotlarning 87,3 %i, polizning 70,6 %i, meva va rezavorlarning 72,0 %i, uzumning 63,6 %i ular tomonidan ishlab chiqarildi. Don ekinlarining esa asosiy qismi fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarildi, ishlab chiqarilgan ushbu mahsulot hajmining 82,4 %i ular hissasiga to'g'ri keladi.

## Chorvachilik




2018 yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 13 289,8 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 105,4 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 38,5 %ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 1 133,9 ming tonna go'sht (2017 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 5,3 %ga ko'p), 4 741,7 ming tonna sut (5,4 %ga), 3 554,9 mln.dona tuxum (9,6 %ga), 19,9 ming tonna jun (0,6 %ga) ishlab chiqarildi.

### 2018 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	miqdori	o'sish sur'ati %da	miqdori	o'sish sur'ati %da	miqdori	o'sish sur'ati %da	miqdori	o'sish sur'ati %da
Go'sht tirik vaznda, ming tonna	1 133,9	105,3	39,7	150,7	1 057,8	103,7	36,4	119,4
Sut, ming tonna	4 741,7	105,4	197,5	128,0	4 503,5	104,4	40,7	131,1
Tuxum, mln. dona.	3 554,9	109,6	374,3	128,3	2 171,6	105,3	1 009,0	113,6
Jun, ming tonna	19,9	100,6	1,9	156,8	17,1	98,5	0,9	74,1
Qorako'l, ming dona.	915,1	98,1	69,9	126,7	751,9	97,8	93,3	86,2
Pilla, ming tonna	14,7	114,5	12,9	108,6	—	—	1,8	187,6

## Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi



Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 93,3 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 95,0 %, tuxumning 61,1 %, junning 86,0 %, qorako'l terining 82,2 %i ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

## Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2018 yilning 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 12 282,4 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 4 408,3 ming boshga, qo'y va echkilar – 21 050,6 ming boshga, parrandalar – 74 203,7 ming boshga etdi.

2017 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 106,9 ming boshga (0,9 %ga), shu jumladan sigirlar – 70,3 ming boshga (1,6 %ga), qo'y va echkilar – 662,1 ming boshga (3,2 %ga), parrandalar – 5 296,9 ming boshga (7,7 %ga) ko'paydi.

## 2018 yilning 1 iyul holatiga xo'jalik toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni


	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming. bosh	o'sish sur'ati %da	ming. bosh	o'sish sur'ati %da	ming. bosh	o'sish sur'ati %da	ming. bosh	o'sish sur'ati %da
Yirik shoxli qoramollar	12 282,4	100,9	604,4	104,2	11 516,5	100,6	161,5	112,4
<i>shu jumladan</i>								
sigirlar	4 408,3	101,6	194,5	98,3	4 174,4	101,8	39,4	98,6
Qo'y va echkilar	21 050,6	103,2	2 284,0	140,0	17 561,3	102,1	1 205,3	77,4
Parrandalar	74 203,7	107,7	9 399,1	119,1	45 344,1	101,8	19 460,5	118,2

### Chorva mollari va parrandalar bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha ulushi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2018 yining 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ho'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,9 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,8 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,3 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 10,9 %i fermer xo'jaliklariga, 83,4 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 5,7 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 12,7 %i fermer xo'jaliklariga, 61,1 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 26,2 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi



Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi boshqarmasi

• 230-80-53  
• 230-80-54